



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VETERINARIYA VA CHORVACHILIKNI
RIVOJLANTIRISH QO'MITASI**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI NUKUS
FILIALI**

**"VETERINARIYA MEDITSINASI VA CHORVACHILIKDAGI DOLZARB
MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI" mavzusidagi xalqaro
ilmiy va ilmiy-texnik konferensiya materiallari**

TO'PLAMI

13-noyabr 2025-yil

СБОРНИК материалов

**международной научно и научно-технической конференции на тему
"АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ВЕТЕРИНАРНОЙ МЕДИЦИНЫ И
ЖИВОТНОВОДСТВА И ИХ РЕШЕНИЯ"**

13 ноября, 2025 г

**International scientific and scientific-technical conference
"ACTUAL PROBLEMS OF VETERINARY MEDICINE AND LIVESTOCK
AND THEIR SOLUTIONS"**

November 13, 2025

NUKUS-2025

“Veterinariya meditsinasi va chorvachilikdagi dolzarb muammolar va ularning yechimlari”
Xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik konferensiyasi materiallari [Matn]: to‘plam / Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali. – Nukus: “Golden Print Nukus” nashriyoti, 2025. – 389 b.

Anjuman tashkiliy qo‘mitasi

Tashkiliy qo‘mita raisi: Esimbetov Adilbay Tlepovich, b.f.d., professor;

Tashkiliy qo‘mita raisi muovini: Avezimbetov Shavkat Dosumbetovich, v.f.n.;

Tashkiliy qo‘mita kotibi: Rozumbetov Kenjabek Umar og‘li, b.f.f.d.;

D. Bazarbayeva – “Veterinariya diagnostikasi va oziq-ovqat xavfsizligi” kafedrasida katta o‘qituvchisi, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

Tashkiliy qo‘mita a‘zolari:

Sh. Jabbarov – O‘zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasi boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari, veterinariya fanlari doktori, professor.

X. Yunusov – Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti rektori, biologiya fanlari doktori, professor.

M. Y. Karpuxin – Ural davlat agrar universitetining ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, agrar fanlar doktori, dotsent (Rossiya Federatsiyasi)

N. G. Malkov – N. F. Vereshagin nomidagi Vologda davlat sutchilik akademiyasi rektori, texnika fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi)

A. Abdurasulov – Qirg‘iziston Respublikasi O‘sh davlat universiteti “Veterinariya meditsinasi va biotexnologiyasi” kafedrasida mudiri, qishloq xo‘jalik fanlar doktori, professor. (Qirg‘iziston Respublikasi)

R. Miqtibayeva – Qozog‘iston milliy agrar tadqiqot universiteti “Mikrobiologiya va virusologiya” kafedrasida professori, veterinariya fanlari nomzodi. (Qozog‘iston Respublikasi)

S. Mirzakulov – Olmaota texnologiya universiteti “Oziq-ovqat mahsulotlari texnologiyasi” kafedrasida professori, qishloq xo‘jalik fanlar doktori, dotsent. (Qozog‘iston Respublikasi)

Q. Atanazarov – O‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari, biologiya fanlari nomzodi, dotsent.

A. Mambetnazarov – Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagog kadrlarni tayyorlash bo‘limi boshlig‘i, qishloq xo‘jalik fanlar doktori, dotsent.

A. Kaniyazov – “Veterinariya va zootexnologiya” fakulteti dekani, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

X. Mamatov – “Zootexnologiya” kafedrasida mudiri, qishloq xo‘jalik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

R. Turg‘anbayev – “Zootexnologiya” kafedrasida professori, agrar fanlar doktori

A. Kamalova – “Veterinariya meditsinasi va farmakologiyasi” kafedrasida mudiri, veterinariya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

P. Xojalepesov – “Iqtisodiyot va gumanitar fanlar” kafedrasida mudiri, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent.

R. Rzaev – “Veterinariya diagnostikasi va oziq-ovqat xavfsizligi” kafedrasida mudiri, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

Ushbu to‘plam O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 27-dekabrda 490-son buyrug‘i bilan oliy ta‘lim tashkilotlari hamda ilmiy tashkilotlarda 2025-yilda o‘tkaziladigan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy anjumanlar, simpoziumlar, seminarlar va boshqa ilmiy hamda ilmiy-texnik tadbirlar ro‘yxati 2-ilovasiga muvofiq tasdiqlangan – 2025-yilda xalqaro miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar rejasi asosida Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filialida 2025-yil 13-noyabr kuni – **“Veterinariya meditsinasi va chorvachilikdagi dolzarb muammolar va ularning yechimlari”** mavzusida o‘tkazilgan Xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik konferensiyasi materiallari asosida tuzilgan.

Konferensiyada, veterinariya sohasida faoliyat olib borayotgan universitet va filialarning professor-o‘qituvchilari, ilmiy markazlarning va insitutlarning ilmiy xodimlari, doktorantlar, magistrantlar, iqtidorli yosh tadqiqotchilarning ilmiy-tadqiqot ishlariga bag‘ishlangan maqolalar o‘rin olgan

To‘plamga kiritilgan maqolalar materiallarining to‘g‘riligi va haqqoniyligiga mualliflar mas‘ul hisoblanadi.

© Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali, 2025

© “Golden Print Nukus” nashriyoti, 2025

5. Юнусов, Х., Комилжонов, С., & Федотов, Д. (2024). МОРФОЛОГИЯ ЯИЧНИКОВ У КРУПНОГО РОГАТОГО СКОТА В НЕКОТОРЫЕ ВОЗРАСТНЫЕ ПЕРИОДЫ. Вестник Ошского государственного университета. Сельское хозяйство: агрономия, ветеринария и зоотехния, (1), 74-80.
6. Юнусов, Х. Б., Федотов, Д. Н., Васютенок, В. И., Сафаров, А. А., & Комилжонов, С. К. (2022). Основы перепеловодства и повышения яйценоскости птицы.
7. Федотов, Д. Н., Комилжонов, С. К., & Кучинский, М. П. (2019). Структурно-функциональная характеристика яичников у крупного рогатого скота при применении витаминно-минерального препарата «Антимиопатик».
8. Юнусов, Х. Б., & Комилжонов, С. К. (2025). Влияние витаминно-минерального препарата на обмен некоторых минеральных веществ в крови у крупного рогатого скота.
9. Комилжонов, С. К. (2025). Морфологические изменения фолликулярного аппарата яичника крупного рогатого скота при применении витаминно-минерального препарата.
10. Юнусов, Х. Б., & Комилжонов, С. К. (2024). Особенности морфологических изменений яичников при их гипофункции у коров.

PARRANDALARDAGI EYMERIOZ KASALLIGIDA OOCISTALARNING BIOLOGIYASI VA RIVOJLANISH SIKLI

Avezimbetov Sh.D., Khojamuratova A.Ya.

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti
Nukus filiali*

Kirish: Eymerioz (koksidioz) — parrandalarda keng tarqalgan, ayniqsa ichki organlarni zararlaydigan protozoal parazitlar kasalliklaridan biridir. Ushbu kasallik parrandalarning sog'lig'iga jiddiy zarar yetkazib, ularning o'sish sur'atlarini sekinlashtiradi, ko'payishini kamaytiradi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi iqlimi va geografik joylashuvi jihatidan O'zbekistonning boshqa hududlaridan o'ziga xos xususiyatlarga ega. Mintaqaning asosan cho'l va yarim cho'l hududlardan iboratligi, haroratning yozda yuqori, qishda esa keskin sovuqligi, shuningdek, namlik darajasining pastligi parazitlar va ularning rivojlanish jarayonlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, parrandachilikda uchraydigan protozoal kasalliklar, xususan eymeriozning tarqalishi va uning agentlari bo'lgan oocistalarning hayotiy sikli va tashqi muhitdagi mavjudligi Qoraqalpog'iston sharoitida alohida o'rganishni talab qiladi.

Eymerioz kasalligining yuqish manbai sifatida "oocistalar" muhim rol o'ynaydi. Oocistalar - Eimeria parazitining tashqi muhitga chiqariladigan, eng barqaror va infeksiya bosqichi hisoblanib, ular orqali kasallik parrandalar orasida tez tarqaladi. Oocistalarning tashqi muhitda saqlanishi va sporulyatsiya jarayoni parazitlarning yuqish qobiliyatini belgilaydi. Qoraqalpog'iston sharoitida ayniqsa yoz va kuz oylarida yuqori harorat va kam namlik oocistalarning sporulyatsiya jarayoniga qanday ta'sir qilishi, ularning uzoq muddat saqlanishi va yuqish qobiliyatini saqlab qolishdagi roli o'rganilishi zarur.

Qoraqalpog'iston sharoitida parrandachilik va eymerioz kasalligining ahamiyati. Qoraqalpog'iston Respublikasida parrandachilik -iqtisodiyotning aholi turmushida muhim o'rin tutuvchi tarmoqlaridan biridir. Ayniqsa kichik va o'rta xo'jaliklarda parranda boqish odatiy holga aylangan bo'lib, bu soha hudud aholisi uchun asosiy daromad manbai hisoblanadi. Shu bilan birga, parrandachilikda yuzaga keladigan kasalliklar, xususan protozoal kasalliklar, jumladan eymerioz, bu sohaning samaradorligini pasaytirib, iqtisodiy zarar keltiradi. Qoraqalpog'istonning mintaqaviy sharoitlarida parrandachilikda sog'lomlikni saqlash, kasalliklarning oldini olish va ularni samarali davolash eng dolzarb vazifalardan biridir.

Eymerioz kasalligiga sabab bo'luvchi parazitlarning tashqi muhitda saqlanishi va yuqish qobiliyati aynan oocistalar bilan bog'liq. Oocistalar - parazitning tashqi muhitda uchraydigan, ko'payish jarayonining eng barqaror va yuqish uchun zarur bosqichi hisoblanadi. Ular parazitning hayot aylanishining final bosqichi sifatida, parazitlar chiqariladigan najas orqali tashqi muhitga chiqadi va mos sharoitlarda yuqish qobiliyatiga ega bo'lgan infeksiyon shakliga (sporulyatsiyaga) aylanishadi. Bu jarayon parrandalar orasida kasallikning tez va keng tarqalishiga sabab bo'ladi.

Oocistalarning biologik xususiyatlari va rivojlanish sikli: Eimeria parazitining hayot sikli ikki bosqichdan iborat: ichki va tashqi bosqichlar. Ichki bosqichda parazit parranda organizmida ko'payadi, hujayralarni zararlaydi va shu orqali kasallik belgilari paydo bo'ladi. Tashqi bosqichda esa oocistalar najas orqali tashqariga chiqadi va u yerda sporulyatsiyaga uchrab, yuqish uchun tayyor shaklga aylanadi.

Oocistalarning tashqi muhitda rivojlanishi harorat, namlik, kislorod mavjudligi kabi bir qancha omillarga bog'liq. Qoraqalpog'iston sharoitida bu omillar o'zgaruvchan bo'lib, ayniqsa yoz oylarida yuqori harorat va kam namlik, qishda esa past harorat va ba'zan qor yog'ishi oocistalarning hayotiyligini sezilarli darajada ta'sir qiladi. Shu bilan birga, mintaqadagi suv havzalari, oziq-ovqat manbalari va sanitariya-gigiyena holati ham oocistalarning tarqalishiga ta'sir ko'rsatadi.

Oocistalarning parrandachilikda roli va profilaktika choralari: Oocistalar bilan ifloslangan muhit orqali kasallik tarqaladi. Shu sababli, parrandachilik xo'jaliklarida gigiyena qoidalariga qat'iy rioya qilish, ozuqa va suv manbalarini toza saqlash, oocistalarning rivojlanishi uchun qulay sharoitlarni cheklash muhimdir.

Tadqiqot maqsadi va ahamiyati: Eymerioz (koksidioz) – parrandalarda keng tarqalgan protozoal parazitlar kasalliklardan biri bo'lib, u "Eimeria" turiga mansub bir hujayrali parazitlar tomonidan chaqiriladi. Ushbu kasallik asosan yosh parrandalarda uchraydi va oshqozon-ichak tizimini zararlab, o'sishning sekinlashishiga, yem sarfining ortishiga, ishlab chiqarish samaradorligining pasayishiga va hatto yuqori o'lim darajasiga olib keladi. Eimeria turlari o'z hayot siklida tashqi muhitda o'ta chidamli bo'lgan oocistalar hosil qiladi. Aynan shu oocistalar muhitda uzoq saqlanib, kasallikning asosiy manbai hisoblanadi.

Shu sababli, mazkur tadqiqot Qoraqalpog'iston sharoitida oocistalarning ekologik omillarga moslashuvini, ularning infeksiyon qobiliyatini va kasallikning tarqalish mexanizmini aniqlashga qaratildi. Tadqiqotning asosiy maqsadi:- Qoraqalpog'istonda parrandalarda parazit oocistalarning tashqi muhitda rivojlanishini, ularning sporulyatsiyasi va yuqish qobiliyatini o'rganish, shuningdek kasallik tarqalishini kamaytirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Qoraqalpog'iston Respublikasi iqlimi keskin kontinental bo'lib, yoz oylarida havo harorati 40°C gacha ko'tariladi, qishda esa -20°C gacha pasayadi. Bunday keskin iqlim sharoiti oocistalarning tashqi muhitda saqlanishi va sporulyatsiyasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Eimeria turlarining biologiyasi va parazitlik xususiyatlari: Parrandalarda ko'p uchraydigan Eimeria turlariga "E. tenella, E. acervulina, E. maxima, E. necatrix, E. brunetti" kiradi. Ular parrandaning ichak traktining turli qismlarini zararlaydi. Masalan, "E. tenella" ko'pincha yo'g'on ichakni, "E. acervulina" esa o'n ikki barmoqli ichakni shikastlaydi. Barcha turlar o'xshash hayot sikliga ega bo'lsa-da, ularning patogenlik darajasi farq qiladi.

Eimeria parazitining rivojlanish sikli uch asosiy bosqichdan iborat:

1. Sporogoniya-oocistalar tashqi muhitda kislorod ta'sirida sporulyatsiyalanadi va infeksiyon holatga o'tadi.
2. Shizogoniya- parazit xo'jayinning ichak hujayralarida ko'payib, ularni nobud qiladi.
3. Gametogoniya - jinsiy ko'payish bosqichi bo'lib, natijada yangi oocistalar hosil bo'ladi va ular najas bilan tashqariga chiqadi.

Har bir bosqichda parazit xo'jayinning immun tizimiga, ichak mikroflorasiga va metabolik jarayonlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ichak devorining yallig'lanishi, qon ketishlar, suvsizlanish va ozuqa moddalarning so'rilishining buzilishi asosiy patogenetik belgilar hisoblanadi.

Tadqiqot metodikasi. Qoraqalpog'iston Respublikasining uch turdagi parrandachilik xo'jaliklarida olib borildi: kichik (xususiy), o'rta va yirik ishlab chiqarish fermalari. Har bir xo'jalikdan 50 tadan parrandalar tanlab olindi. Ularning yoshi 3 oygacha bo'lib, bu davrda eymerioz eng ko'p uchraydi.

Namuna olish: Har bir xo'jalikda parrandalardan yangi najas namunalar olindi va gigiyenik sharoitda laboratoriyaga yetkazildi.

Oocistalarni aniqlash usuliga quydagilar kiradi :

Flotatsion metod (NaCl eritmasida) yordamida oocistalar ajratib olindi.

Mikroskop ostida 400x kattalashtirishda ularning shakli, o'lchami, qobig'ining qalinligi va sporulyatsiya darajasi o'lchandi.

Har bir namunadan o'rtacha 10 maydon tahlil qilinib, oocistalar soni (O.P.G — oocist per gram) aniqlangan.

Sporulyatsiya tajribasi: Bunda olingan oocistalar maxsus idishlarda turli harorat (20°C, 25°C, 30°C, 35°C) va namlik (40%, 60%, 80%) sharoitlarida 5 kun davomida inkubatsiya qilindi. Har 24 soatda mikroskop ostida sporulyatsiyalangan oocistalar foizi qayd etildi.

Statistik tahlil: Bunda olingan ma'lumotlar "SPSS 22.0" dasturida qayta ishlanib, harorat va namlikning oocista rivojlanishiga ta'siri "bir omilli ANOVA" usuli yordamida baholandi. $P < 0.05$ qiymat statistik ahamiyatli deb qabul qilindi.

Tadqiqot vazifalari: Oocistalarning tashqi muhitda saqlanishi va sporulyatsiya jarayonini turli harorat va namlik sharoitida o'rganish; Parazitar oocistalarning yuqish qobiliyatini baholash; Qoraqalpog'iston sharoitida parrandachilikda kasallik tarqalishini tahlil qilish;

Gigiyena va profilaktika choralari bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish. Tadqiqot Qoraqalpog'iston Respublikasi hududidagi uch xil turdagi parrandachilik xo'jaliklarida (kichik, o'rta va yirik) olib borildi. Namuna sifatida 3 oylik va undan kichik yoshdagi parrandalar tanlandi, chunki ular kasallikka eng sezgir guruh hisoblanadi.

Harorat (°C)	Namlik (%)	Sporulyatsiya darajasi (%)
20	40	33
20	60	48
20	80	62
25	40	58
25	60	74
25	80	89
30	40	72
30	60	90
30	80	97
35	40	68
35	60	81
35	80	87

Yuqish qobiliyatini baholash: Laboratoriya sharoitida yetishtirilgan parrandalar oocistalar bilan sun'iy infektsiyaga uchratildi. Har bir guruhda 10 ta parranda bo'lib, ular turli sharoitda rivojlangan oocistalar bilan yuqtirildi. Parrandalar sog'lig'i, kasallik belgilari va o'lim holatlari 14 kun davomida kuzatildi.

Oocistalarning sporulyatsiya darajasi: Quyidagi jadvalda turli harorat va namlik sharoitida 5-kun oxiridagi sporulyatsiya darajasi keltirilgan:

Ushbu natijalar Qoraqalpog'istonning yozgi iqlimi (30–35°C, 60–70% namlik) sharoitida oocistalar juda tez rivojlanishini ko'rsatadi. Shu sababli yoz oylarida eymeriozning tarqalish xavfi eng yuqori darajaga chiqadi.

Oocistalarning yashovchanligi va yuqish qobiliyati bunda: Oocistalarning uzoq muddatli saqlanishi natijalariga ko'ra: 35°C dan yuqori haroratda ularning 50% 10 kun ichida nobud bo'lgan, 20°C va 80% namlikda esa 8 haftagacha infeksiya qobiliyatini saqlagan.

Bu ma'lumotlardan kelib chiqib, oocistalar sovuq va nam muhitda uzoq vaqt yashovchan bo'lishi, ammo yuqori haroratda tez nobud bo'lishi isbotlandi.

Kichik xo'jaliklarda axlat tozalashning sustligi, suv manbalarining ifloslanishi va yemning nazoratsiz saqlanishi asosiy xavf omili sifatida aniqlangan. Shuningdek, bu joylarda profilaktika ishlari deyarli olib borilmagan.

Tahlil natijalariga ko'ra, kichik xo'jaliklarda eymeriozning tarqalish darajasi yuqori (48%), o'rta xo'jaliklarda 33%, yirik xo'jaliklarda esa 18% ni tashkil etdi.

Bu farqlar gigiyenik sharoit, dezinfeksiya chastotasi va parranda zichligiga bog'liq.

Xo'jalik turi	Kasallik tarqalish darajasi (%)	Oocistalar kontsentratsiyasi (ta najasda)
Kichik xo'jalik	48	2100
O'rta xo'jalik	33	1300
Yirik xo'jalik	18	600

Ekologik omillarning ta'siri: Qoraqalpog'istonning tabiiy sharoiti oocistalarning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi.

Yoz oylarida- yuqori harorat va namlik oocistalarning tez sporulyatsiyasiga sabab bo'ladi.

Kuzda- harorat pasayishi bilan oocistalar faolligi susayadi, ammo ular tirik holatda uzoq muddat saqlanadi.

Qish oylarida-sovuq havo oocistalarning faol rivojlanishini to'xtatadi, lekin muzlagan holatda ular bir necha oy infeksiyon qobiliyatini yo'qotmaydi.

Tuproqning mexanik tarkibi ham ahamiyatli: qumli tuproqda oocistalar tez qurib nobud bo'ladi, ammo nam loy tuproqda ularning yashovchanligi yuqori bo'ladi. Bu holat parrandachilik fermalarining joylashuvi va qurilish materiallarini tanlashda inobatga olinishi kerak.

Kasallikni oldini olish va davolash choralari: Eymeriozni oldini olishda "kompleks yondashuv" talab etiladi: gigiyena, ozuqa nazorati, dezinfeksiya, dori va vaksina ishlatish.

Gigiyena va sanitariya.

Parrandachilik xonalarini har 10–15 kunda issiq suv, formalin (2–3%) yoki ammiak (10%) eritmali bilan dezinfeksiya qilish.

Quruq axlat tizimini joriy etish, suv oqmalarini tartibga solish.

Parranda zichligini 1 m² maydonga 10–12 boshdan oshirmaslik.

Kasallikni davolash va profilaktikada quyidagi preparatlar samarali hisoblanadi:

Toltrazuril (Baycox)-7 mg/kg dozasi 2 kun davomida beriladi.

Amprolium-yem yoki suvga 0,0125% miqdorda qo'shiladi.

Diclazuril (Clinacox)-1 ppm konsentratsiyada profilaktik maqsadda ishlatiladi.

Bu preparatlar parazitning ichakdagi rivojlanish bosqichlarini to'xtatib, najasda oocistalarini keskin kamaytiradi.

Vaksinalar: So'nggi yillarda "Paracox" va "Livacox" tipidagi jonlantirilgan vaksinalar yuqori samaradorlik ko'rsatmoqda. Ular parrandalarda tabiiy immunitet hosil qiladi va kimyoviy dorilarga nisbatan xavfsizroq.

Mahalliy sharoit uchun tavsiyalar:

Xo'jaliklarda quruq va toza muhitni saqlash;

Yoz oylarida dezinfeksiya chastotasini oshirish;

Nam axlatni o'z vaqtida olib chiqish;

Suv tizimlarini yopiq holatda ushlab, tashqi ifloslanishdan himoyalash;

Probiotik va vitamin qo'shimchalari bilan parrandalarning immunitetini mustahkamlash.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati: Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, Qoraqalpog'iston sharoitida eymeriozning eng faol tarqalish davri yoz oylari bo'lib, 30–35°C va 60–80% namlik oocistalar uchun eng qulay muhit hisoblanadi. Bu esa profilaktika choralari mavsumiy rejalashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra:

Oocistalar 35°C dan yuqori haroratda tez nobud bo'ladi, 20°C va yuqori namlikda esa 2 oy davomida infeksiya qobiliyatini saqlab qoladi,

Kichik xo'jaliklarda gigiyena yetishmasligi sababli kasallik 2,5 baravar ko'p uchraydi.

Ushbu ma'lumotlar asosida profilaktika tizimini optimallashtirish hamda kichik xo'jaliklar uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kelgusidagi tadqiqot yo'nalishlari:

Molekulyar biologiya usullari yordamida Eimeria turlarini **genetik identifikatsiya qilish;

Antikoksidial preparatlarning rezistentlik darajasini o'rganish;

Qoraqalpog'istonning boshqa hududlarida "ko'lamli monitoring" tadqiqotlarini o'tkazish;

Ekologik xavfsiz bio-profilaktik vositalar (fitopreparatlar, probiotiklar) ishlab chiqish.

Xulosa. Shuni tasdiqlaydiki, Qoraqalpog'iston Respublikasi sharoitida iqlimiy omillar-havo harorati, nisbiy namlik va gigiyenik muhit oocistalarning sporulyatsiyasi hamda invazion faolligiga sezilarli darajada ta'sir etadi. Ayniqsa, issiq va nam mavsumlarda oocistalar tezroq rivojlanib, tashqi muhitda uzoq muddat saqlanadi. Shuningdek, xo'jaliklarda tozalash va dezinfeksiya ishlarining sustligi, parrandalarni haddan tashqari zich joylashtirish hamda antikoksidial vositalardan noto'g'ri foydalanish kasallikning ommaviy tarqalishiga sabab bo'ladi.

Umuman olganda, o'tkazilgan tadqiqotlar natijasi parrandalarda eymeriozning oldini olish, erta aniqlash va samarali nazorat qilish uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqish zarurligini ko'rsatadi. Kelgusida ilmiy izlanishlar oocistalarning genetik turlanishini aniqlash, yangi avlod antikoksidial vositalar ishlab chiqish hamda ekologik xavfsiz profilaktika usullarini joriy etish yo'nalishida davom ettirilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kaniyazov, A. J., & Shakarboev, E. B. (2023). Helminths of horses in Karakalpakstan: seasonal, spatial and age dynamics. *Acta Biologica Sibirica*, 9, 539-548.
2. Shakarboev, E. B., Berdibaev, A. S., Abdurakhmonov, S. A. U., & Kaniyazov, A. J. (2024). Nematode *Diectophyme Renale* Goeze, 1782 (Nematoda, Diectophymatidae) in Predatory Mammals in Karakalpakstan. *European Journal of Veterinary Medicine*, 4(2), 1-3.
3. Юнусов, Х., Комилжонов, С., & Федотов, Д. (2024). МОРФОЛОГИЯ ЯИЧНИКОВ У КРУПНОГО РОГАТОГО СКОТА В НЕКОТОРЫЕ ВОЗРАСТНЫЕ ПЕРИОДЫ. *Вестник Ошского государственного университета. Сельское хозяйство: агрономия, ветеринария и зоотехния*, (1), 74-80.
4. Юнусов, Х. Б., Федотов, Д. Н., Васютенок, В. И., Сафаров, А. А., & Комилжонов, С. К. (2022). Основы перепеловодства и повышения яйценоскости птицы.
5. Федотов, Д. Н., Комилжонов, С. К., & Кучинский, М. П. (2019). Структурно-функциональная характеристика яичников у крупного рогатого скота при применении витаминно-минерального препарата «Антимиопатик».
6. Юнусов, Х. Б., & Комилжонов, С. К. (2025). Влияние витаминно-минерального препарата на обмен некоторых минеральных веществ в крови у крупного рогатого скота.
7. Комилжонов, С. К. (2025). Морфологические изменения фолликулярного аппарата яичника крупного рогатого скота при применении витаминно-минерального препарата.
8. Юнусов, Х. Б., & Комилжонов, С. К. (2024). Особенности морфологических изменений яичников при их гипофункции у коров.
9. Хакимов З., Уринов У., Саидова М., Нарманов О., Эрназаров Д., Ходжаева З., ... и Очилов Ю. (2025). Биоразнообразие насекомых в Узбекистане: от

- обширных степей до берегов Каспия – краеугольный камень евразийских экосистем. Каспийский журнал экологических наук, 23 (4), 1101-1105.
10. Ниязов Х., Эрнazarов Д., Аvezимбетов С., Реджепбаев Дж. С. и Шакилов У. (2025). Различные методы лечения искусственного гнойно-некротического процесса у кроликов. В BIO Web of Conferences (том 181, стр. 01007). ЭДП наук.
11. Ernazarov, D. A. (2024, October). The Effect of 10% Blood Herb (Chistotel)(Chelidonii Herba) Ointment and 10% Aloe Extract Ointment on the Inflammation Process. In International Congress on Biological, Physical And Chemical Studies (ITALY) (Vol. 5, pp. 69-73).

ҚОРАМОЛЛАРДА ЯШИРИН ЭНДОМЕТРИТНИ ДАВОЛАШДА БАЧАДОН БЎЙНИГА ГЕНТАМИЦИННИ ТЎҒРИДАН-ТЎҒРИ ИНЕКСИЯ ҚИЛИШ УСУЛИ

Аvezимбетов. Ш.Д.

Самарқанд давлат ветеринария медицинаси, чорвачилик ва биотехнологиялар университети Нукус филиали

Кириш. Қорамоллар репродуктив тизим касалликлари, хусусан, эндометрит, чорвачилик тармоғида ҳозирги кунда энг кўп тарқалган ва иқтисодий жиҳатдан катта зарар келтирадиган касалликлардан бири ҳисобланади. Эндометрит кўпинча туққандан кейинги даврда ривожланиб, бачадон шиллиқ қавати яллиғланиши билан кечади. Унинг яширин (субклиник) шаклида клиник белгилари яққол кўзга ташланмагани сабабли фермер хўжаликларида кўп ҳолларда кеч аниқланади ва бу уруғлантириш самарадорлигини кескин пасайтиради. Илмий маълумотларга кўра, яширин эндометрит билан касалланган сигирларда қайта уруғланиш кўрсаткичи соғлом сигирларга нисбатан 20–40% га кам бўлади.

Жаҳон амалиётида эндометритни эрта аниқлаш ва самарали даволаш бўйича кўплаб илмий тадқиқотлар олиб борилган. Масалан, Германия ва Нидерландияда (Rantanen et al., 2019; Müller, 2021) сигирларда эндометритни ультратовуш ёрдамида эрта босқичда аниқлаш ва бачадонга маҳаллий антибиотик киритиш усули кенг қўлланилади. Бу усул инфекция манбаини бевосита бачадонда йўқотиш имконини бериб, умумий антибиотик терапияга нисбатан 30–35% юқори самара кўрсатган. АҚШ ва Канадада эса (Smith et al., 2020) туққандан кейинги даврда профилактик мақсадда бачадон бўйнига гентамицин, цефтиофур ва ампициллин асосидаги маҳаллий препаратлар қўлланилиб, уруғлантириш самарадорлигини 75–80% гача оширишга эришилган.

МДХ мамлакатлари тажрибасида ҳам шу йўналишда муҳим ишлар амалга оширилмоқда. Россия Федерациясида (Смирнов ва бошқ., 2020) “Интраматрикс” усули деб аталган маҳаллий антибиотик терапия кўпгина чорвачилик хўжаликларида амалиётга жорий қилинган бўлиб, у яширин эндометритни даволашда 78–85% самара берган. Қозоғистонда (Жақыпов, 2022) гентамицинни бачадон бўйнига тўғридан-тўғри киритиш билан биргаликда микроэлементли маҳаллар қўлланилиб, репродуктив фаолликни тез тиклаш бўйича ижобий натижалар олинган. Беларусь ва Украина олимлари эса бачадон шиллиқ қаватидаги яллиғланишни камайтириш мақсадида антибиотиклар билан бирга антиоксидантлар ва пробиотикларни қўллаш усулини тавсия этмоқдалар (Kovalenko et al., 2021).

Ўзбекистонда ҳам охириги йилларда қорамолларда эндометритнинг олдини олиш ва уни самарали даволаш бўйича тадқиқотлар фаол олиб борилмоқда. Миллий илмий-тадқиқот институтларида маҳаллий шароитда самара берувчи усуллар, хусусан, антибиотикларни